



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбар Муртазаева МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚА ДАВЛАТЛАРИДА ИЛМ-ФАННИНГ ФЕМИНИЗАЦИЯЛАШУВИ.....	5
2. Тўлқин Алиев ТОШКЕНТ ШАҲРИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	16
3. Нодирабегим Ваисова ВКЛАД Ю.Ф. БУРЯКОВА В ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СОГДИАНЫ.....	25
4. Sevara Elmurodova MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	32
5. Risqiniso Maxmudova O'ZBEKISTON SSRDA ALIFBO SIYOSATINING GEOSIYOSIY MAQSADLARI.....	38
6. Mohira Matnazarova ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.....	44
7. Nargiza Raxmatova O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN.....	48
8. Фаррух Разаков СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВОМ ШЕЙБАНИДОВ.....	54
9. Hilola Normamatova CHOCHDA ZARB ETTIRILGAN G'ARBIY TURK XOQONLIGI TANGALARIDAGI DINIY- SIYOSIY RAMZLAR.....	63
10. Нодира Холмонова РОССИЯНИНГ ХИВА ХОНЛИГИДА ЮРИТГАН ИҚТИСОДИЙ - ПУЛ СИЁСАТИ (айрим тадқиқотлар мисолида).....	67
11. Rashid Xolmurodov JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI.....	72
12. Davlatbek Qudratov O'ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.....	79



Nargiza Dolibayevna Raxmatova,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Musiqiy ta’lim” kafedrasida dotsent v.b.

О‘РТА ОСИYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN

For citation: Nargiza D. Raxmatova. FROM THE HISTORY OF THE MUSICAL CULTURE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17966911>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasida musiqiy an’analar qadimdan e’zozlanib taraqqiy etib kelganligi, o’rta asrlarda musiqa ilmining rivojlanishi, qomusiy olimlar asarlarida musiqa ilmining aks etganligi yoritilgan. Shuningdek, maqola Xorazmning qadimiy va boy musiqiy merosiga bag’ishlangan bo’lib, ushbu mintaqaning o’zbek xalq musiqasidagi alohida o’rnini keng yoritadi. Unda xalq ashula san’atining tarixiy shakllanishi, ijro uslublari, asboblarning tarkibi hamda maqom tuzilmasidagi o’ziga xos xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Tarixiy va adabiy xarakterdagi asarlarda, ayniqsa musiqaga doir XV-XVII asrda yozilgan risolalarda maqomlar kuy va ashula shakllarining yaratilishi va ularning ijodkorlari haqida avvalgi davrlarga nisbatan boy material yetib kelganligi manbalar asosida ko’rsatib berilgan. Mazkur manbalar O’rta Osiyoda musiqiy an’analar qadimdan e’zozlanib, taraqqiy etib kelganligi hamda musiqa ilmi rivojlanganligidan dalolat berishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Avesto, kuy, cholg‘u sozlari, raqs, sozanda, musiqa ilmi, musiqa risolasi, qo‘shiqchilik san’ati, cholg‘u ijrochiligi, maqomlar.

Наргиза Долибаевна Рахматова,
и.о. доцента кафедры «Музыкальное образование»
Национального педагогического университета
Узбекистана имени Низами

ИЗ ИСТОРИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается развитие музыкальных традиций в Хорезмском оазисе с древнейших времен, развитие музыкальной науки в разные периоды, отражение музыкальной науки в трудах ученых-камуси. Статья также посвящена древнему и богатому музыкальному наследию Хорезма и широко освещает особое место этого региона в узбекской народной музыке. Подробно анализируются историческое становление хорезмских макомных направлений и народного песенного искусства, исполнительские стили, инструментальный состав и особенности макомной структуры. На основе источников показано, что в произведениях историко-литературного характера, особенно в музыкальных

трактатах XV–XVII веков, до наших дней сохранился богатый материал о создании макомных мелодий и песенных форм, об их создателях. Эти источники основаны на том, что музыкальные традиции в Центральной Азии почитались и развивались с древнейших времён, а музыкальная наука получила широкое развитие.

Ключевые слова: Авеста, мелодия, музыкальные инструменты, танец, музыкант, наука музыки, трактаты о музыке, искусство пения, инструментальное исполнение, макамы.

Nargiza D. Rakhmatova,
Acting Associate Professor of the Department
of Music Education at the Nizami National
Pedagogical University of Uzbekistan

FROM THE HISTORY OF THE MUSICAL CULTURE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article highlights the development of musical traditions in the Khorezm oasis since ancient times, the development of musical science in different periods, and the reflection of musical science in the works of Kamusi scientists. The article is also dedicated to the ancient and rich musical heritage of Khorezm, and it extensively covers the special place of this region in Uzbek folk music. It analyzes in detail the historical formation of the Khorezm maqom paths and folk song art, performance styles, instrumental composition, and specific features of the maqom structure. It is shown on the basis of sources that in works of a historical and literary nature, especially in treatises on music written in the 15th-17th centuries, a wealth of material has survived to earlier periods about the creation of maqom melodies and song forms and their creators. These sources are based on the fact that musical traditions in Central Asia have been revered and developed since ancient times, and that music science has developed.

Index Terms: Avesta, melody, musical instruments, dance, musician, the science of music, treatises on music, the art of singing, instrumental performance, makoms.

Dolzarbliqi:

Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixi mintaqaning boy madaniy merosi, etnik oʻziga xosliklari va ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini anglashda muhim oʻringa ega ekanligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati qadimdan Oʻrta Osiyo yerlarida shakllanib, turli tarixiy davrlar va madaniyatlarning oʻzaro taʼsiri orqali boyib borgan, shuning uchun uni oʻrganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun muhimdir. Oʻrta Osiyo musiqasi nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki mintaqaning turli xalqlari va ularning ijtimoiy tizimlari tarixini aks ettiruvchi madaniy qatlamdir. Tarixiy manbalar Oʻrta Osiyo xalqlarining musiqaga oid yuqori madaniy merosidan dalolat beradi. Ushbu madaniyat nafaqat xalq anʼanalari, balki ilmiy musiqashunoslikda ham kerakli tadqiqot obyektidir. Bugungi kunda Oʻrta Osiyo musiqa madaniyatining tarixi zamonaviy etnomusiqashunoslik va madaniyatshunoslik yondashuvlari orqali chuqur oʻrganilmoqda. Bu tadqiqotlar mintaqaning madaniy integratsiyasi, etnik koʻp qirrali taʼsiri va milliy madaniyatlarni rivojlantirishda asos hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tarixiy musiqiy merosni saqlash va yosh avlodga yetkazish milliy madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixi mavzusi nafaqat akademik ilm-fan uchun, balki madaniy merosni saqlash va rivojlantirish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir.

Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatida Xorazm vohasida musiqiy anʼanalar alohida oʻrin tutadi. Xorazm vohasida musiqiy anʼanalar juda boy va oʻziga xos makon boʻlib, qadimdan madaniyat va sanʼat markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududda xalq musiqa ijodiyoti, marosim qoʻshiqlari, doston, talqinchi va goʻyandalar sanʼati singari ogʻzaki anʼanadagi kasbiy musiqa shakllari rivojlangan. Olimlarning Xorazm vohasida musiqiy anʼanalar haqida fikrlari ushbu hudud musiqasining oʻziga xos xususiyatlari, tarixiy ildizlari va ijrochilik makonining boyligi haqida asoslangan. Ular Xorazm musiqa uslubini qadimiy madaniyat va sanʼat maskanining bir yoʻnalishi

sifatida yuqori baholagan. Olimlarning fikricha, bu voha ogʻzaki anʼanalar va kasbiy musiqa shakllarining, masalan, doston, talqinchi va goʻyandalar sanʼati, shuningdek, xalq musiqa ijodiyotining boy namunalarini oʻzida mujassamlashtirgan.

Olimlar Xorazm musiqiy anʼanalarining nafaqat sanʼat, balki ijtimoiy va diniy-tasavvufiy mavzularni ham oʻzida aks ettiradigan madaniy meros sifatida davom ettirilishini va ularni zamonaviy sharoitda ham saqlab qolish zarurligini taʼkidlaydi. Xorazm musiqiy anʼanalari nafaqat madaniyatni, balki ijtimoiy hayotni, odamlarning urf-odatlarini va marosimlarida ifodalanadigan qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu sababli, bu anʼanalar davom ettirilishi va asrab-avaylanishi bugungi kunda ham dolzarbdir, chunki ular hududning milliy oʻzligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Metodlar va mavzuning oʻrganilganlik darajasi:

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda, Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixi Xorazm vohasida musiqiy anʼanalar, shuningdek, oʻrta asrlar musiqa risolalari misolida ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, mavzu doirasida O.Matyoqubov, T.Yoʻlchiyev, I.Rajabov, Z.Bunyodov, I.Radjapov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishganini qayd etish lozim.

Tadqiqot natijalari:

Musiqa badiiyat, sanʼat sifatida tom maʼnoda ijro etish va uni tinglashdan boshlanadi. Sozanda kuyning ijrochisi boʻlsa, tinglovchi uning qabul qiluvchisidir.

Ayrim ilmiy qarashlarga koʻra, Xorazm koʻhna zardoʻshtiylik dinining muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto”da “sruna” deb ataluvchi “sirli eshitish” tushunchasi boʻlgan ekan. Tinglash, quloq orqali vujudga ozuqa olishni zardoʻshtiylik muqaddas tuygʻu deb hisoblaganlar. Mumtoz musiqamizning “zamzama”, “tarona”, “suvora” kabi iboralarining ildizlari ham “Avesto” davriga borib taqaladi.

Oʻzbekiston sanʼatini oʻrganishda Xorazmshohlar davlatining markazi boʻlgan Tuproqqalʼa va Qoʻyqirilganqalʼa yodgorliklari juda koʻp maʼlumot beradi. Tuproqqalaning ikkinchi qavatidagi beshinchi xonada sozanda va xonandalar rasmlari ishlangan. Shular qatorida uchburchak shaklidagi katta chang chalayotgan ayolning nafis rasmi butunligicha saqlanib qolgan. Qoyqirilganqalʼa va uning yaqinidan topilgan qoʻlida musiqa sozi tutgan haykallar kishi eʼtiborini oʻziga jalb etadi [2. 39]. Mazkur yodgorliklar Oʻzbekistonda, xususan, Xorazmda musiqa, raqs va qoʻshiqchilik sanʼati qadim zamonlardan maʼlum ekanligi, musiqa sanʼati dunyosida Xorazm yuksak oʻrinda boʻlganligidan dalolat beradi.

Xorazmliklarning oddiy xalqidan tortib, eng oliy tabaqa vakillarigacha oʻzini soz sanʼatiga yaqin tutgan. Xususan, Alisher Navoiyning “Sabʼai sayyor” [4. 357.] dostonida ham buni koʻrishimiz mumkin:

Chun duo qildi, dedi farzona
 Ki dey oʻz koʻrgonimdan afsona
 Menki tushmish buyon chuzor menga
 Mulk Xorazm erur diyor menga
 Sanʼatim anda soz chalmoq ishi
 Bilmayin men kabi ishimni kishi
 Ilmi advoru fanni musiqiy
 Mendin ul ilm ahli tahqiqi

Muhammad Xorazmshoh musiqa va sheʼriyatni chuqur idroklaydigan, atrofidagi shoir va sozandalarga nozik uqtirishlar qiladigan podshoh boʻlgan. Rivoyat qilishlaricha, Xorazm poytaxti koʻhna Urganch Chingizxon bu maskanni harob qilmasidan ilgari Urganch shahrida insonlar musiqani oʻzlariga bir hunar va kasb qilganlar. “Hatto mazkur asarlarning mubolagʻa bila koʻrsatganigʻa qaragʻanda yolgʻiz koʻhna Urganch shahrida dutor sozina eshak yoʻnib, sotib oʻngishiqlarini shul hunarlari bila oʻttaradurgʻon kishilarning miqdori bir mingga yetishadur”[1. 38].

Xorazmshoh Sulton Muhammad o‘zi barbat (ud) da navba (turkumli asarlar) chalib huzur topishni odat qilgan. Hattoki, Xorazmshoh muhim davlat ishlariga qo‘l urishdan oldan unga ruhiy tayyorlanib, miriqib kuy chalib, aql va tuyg‘ularini sozlab bo‘lgandan keyin kirishar ekan [5.25].

Xorazmda bemorlarni musiqa bilan ham davolaganlar. Rivoyatlarda aytilishicha, olimlar orasida shifo uslublari haqida bahs ketganda shogirdlardan biri Muhammad Xorazmiyga “Siz insonlarni davolashda nimani afzal ko‘rasiz, dori-darmonnimi yoki jarrohliknimi?” – deb savol bergan ekan. Shunda ustozning “Mening vatanimda ularning ikkalasidan ham musiqaning shifobahsh kuchini ustun tutadilar”, - degan so‘zlari tarixga kirib qolgan [1. 35].

Xorazmshoh Ma‘mun II ibn Ma‘mun (997-1017) davrida Gurganjda fanlar akademiyasi tashkil etilgan. Xorazm zaminida tashkil etilgan mazkur Ma‘mun akademiyasiga qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy rahnamolik qilgan. Ushbu akademiyada faoliyat ko‘rsatgan buyuk allomalar jahon ilmi va madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari Xorazmning eng qadimgi tarixi, madaniyati va etnografiyasini o‘rganishda tengi yo‘q manbadir.

Somoniylar davrida madaniyat va san‘atning ravnaqi uchun sharoitlar yaratildi. O‘rta Osiyodan chiqqan qator olimlar xuddi shu davrlarda o‘zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo‘ldilar. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar musiqa nazariyasi bo‘yicha ilmiy asarlar yaratdilar. Ular Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davrni ochib berdilar. Mazkur olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo‘llanilgan musiqa nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar ajralib turadi. XIV asrlarda O‘rta Osiyoda Temuriylar davlati barpo etilgani tarixdan ma‘lum. Bu davrda adabiyot va san‘atning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilgan edi. Amir Temur hukmdorlik qilgan zamon musiqasi to‘g‘risida ba‘zi ma‘lumotlar bizgacha yetib kelgan. Tarixchi olimlarning sohibqironning yurishlarini aks ettirgan kitoblarida o‘sha zamonning musiqa hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi.

Bu o‘rinda ozarbayjon xalqining ulug‘ musiqachisi Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy haqida aytib o‘tishgina kifoyadir. Xo‘ja Abdulqodir haqida turli ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Professor E. Brounning yozishicha, u Marog‘ shahridan chiqqan bo‘lib, Bag‘dod hukmdori tomonidan Samarqandga Amir Temur saroyiga tortiq qilib yuborilgan. Xo‘ja Abdulqodir dastlab Temur saroyida, uning vafotidan so‘ng Shohruh qo‘lida sozanda (naychi) bo‘lib ishlagan. Professor A. A. Semyonovning aytishicha, Amir Temur Iroqni bosib olganidan keyin, boshqa mutaxassislar qatori Xo‘ja Abdulqodirni ham Bag‘doddan Samarqandga ko‘chirib kelgan edi [3.18].

Xo‘ja Abdulqodir mohir nay ijrochisi bo‘lib, u ikkita katta risola ham yozgan. Ular “Maqasidul alhan” va “Jami‘ul-alhan”, deb nomlanib, mazkur musiqa risolalarda musiqaning nazariy ham amaliy masalalari yoritilgan. Professor V.M.Belyayevning Xo‘ja Abdulqodirning nazariy risolalarini o‘rganishga bag‘ishlangan asarida Xo‘ja Abdulqodirning risolalarida maqomlar va ritmlar masalasi markaziy o‘rinni egallagani ta‘kidlanadi [3.20].

O‘rta Osiyoda adabiyot va musiqa rivojlanishining eng muhim davri buyuk o‘zbek mutafakkiri, shoir Alisher Navoiy Hirotda yashagan davr edi. Bu vaqtda, Samarqandda temuriylar hukmronligi davridagi eng yirik madaniy markazlardan biri bo‘lgan Hirotda ilm-fan, adabiyot va san‘at rivojiga katta e‘tibor qaratilgan. Bu yerda hunarmandchilik rivojlandi, ajoyib binolar – masjidlar, madrasalar qurildi, she‘riyat va musiqa gullab-yashnadi. Sulton Husayn Mirzo hukmronligi davrida shoir va musiqachilarning asosiy qismi uning saroyida, asosan Navoiy atrofida to‘planishgan.

XV asrning bilvosita manbalari, ya‘ni tarix, she‘riyat va adabiyotga bag‘ishlangan asarlarda ko‘pincha musiqachilarning ismlari yoki o‘sha paytda mavjud bo‘lgan musiqa asboblarning nomlari uchraydi, xon saroylaridagi ziyofatlar yoki umumxalq bayramlarida qo‘shiqlar va raqslar haqida hikoya qilinadi. Shunday qilib, Sulton Husayn davrida bayramlarda turli mutaxassisliklar hunarmandlari ishtirok etganini, ko‘chalarda va jamoat joylarida raqslar tashkil etilganini, qo‘shiqlar kuylanganini bilib olamiz. O‘rta asrlar miniatyuralarida bu davr musiqiy hayotining turli jihatlarini yorqin aks etgan. Bular, masalan, qo‘shiqchilar va raqqoslar bilan birga bo‘lgan turli xil

cholg‘u ansambllarining tasvirlari, bazmlarning ishtirokchilari, musiqa tinglash vaqti, shuningdek, karnay, surnay va nog‘ora chalgan sozandalar hamrohligida ov, jang va turli yurish sahnalaridir. Bunday miniatyuralar odatda tarixchi olimlar va shoirlarning asarlarida illyustratsiya sifatida uchraydi. Ushbu tasvirlar bizda o‘tmishdagi musiqiy hayotning alohida epizodlari haqida aniq tasavvurni ochib beradi, ota-bobolarimizning musiqiy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lishga yordam beradi [6. 25].

XV asrda O‘rta Osiyo va Xuroson xalqlarining madaniy hayotini o‘rganishda shoirlar antologiyalari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular orasida buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” (Tafakkurli kishilar suhbat) asari alohida ajralib turadi. Navoiy o‘zining antologiyasini zamonaviy shoirlarga bag‘ishladi. U shoirlarning hayoti haqida ozmi-ko‘pmi batafsil ma‘lumot beradi, ularning har birining ijodini tavsiflaydi va baholaydi. Navoiy antologiyasi bir vaqtning o‘zida boshqa kasblar bilan shug‘ullangan shoirlarning ismlarini o‘z ichiga oladi va ular haqida qimmatli va eng ishonchli ma‘lumotlarni keltiradi. “Majolis un-nafois” da qobiliyatli shoir bo‘lgan rassomlar, musiqachilar, olimlar, jangchilar, hunarmandlar, xattotlar, quruvchilar va boshqalarning ismlarini uchratamiz. Shoirlarning aksariyati musiqachilar va aksincha, musiqachilarning aksariyati shoirlar bo‘lishgan. Adabiy manbalardan ko‘rinib turibdiki, musiqa (vokal musiqasi haqida so‘z bormoqda) she‘riyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatgan [6. 27].

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois”, “Mahbubul-qulub” kabi asarlarida ko‘pgina sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida ud, nay, g‘ijjak, rud, tanbur, rubob, qonun, qo‘biz, chang, nog‘ora, doyra kabi cholg‘ularning nomi juda ko‘p uchraydi. Bu cholg‘u sozlarining ba‘zilari bizning kungacha yetib kelmagan, ayrimlari O‘rta Osiyoda iste‘moldan chiqib ketgan va yana bir xillarining shakli o‘zgarib, nomigina saqlanib qolgan.

Manbalarda yozilishicha, A.Navoiyning o‘zi musiqa nazariyasini yaxshi bilgan. U kuylar bastalagan, ularni qayta ishlagan va musiqiy asarlarni ajoyib tarzda ijro etgan.

Zahiriddin Boburning xabar berishicha, Navoiy “naqsh” shaklida (taronaga o‘xshash shakl) ajoyib qo‘shiqlar va “peshrav” uslubida kuylar yaratgan; bu shakllar zamonaviy Shashmaqom tarkibiga ham kiritilgan [6.28].

XV asr adabiy va musiqiy yodgorliklari orasida bayozlar deb nomlangan she‘rlar to‘plamlari mavjud. Alisher Navoiy va shoir hamda atoqli olim Abdurahmon Jomiy zamondoshlari bilan birgalikda ko‘plab to‘plamlar yaratganlar. Musiqachilar qo‘shiqlar va maqomlarning alohida qismlarini ijro etish uchun bu to‘plamlardagi misralardan foydalanganlar. Bu bayozlar o‘sha davr musiqa madaniyatini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Shuningdek, mazkur davrda yaratilgan musiqa risolalari musiqa ilmining qay darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. A.Navoiyning iltimosiga binoan, Abdurahmon Jomiy “Risolai musiqiy” (Musiqqa risolasi) ni yozadi. A.Jomiyning risolasida o‘rta asr Sharq musiqasining barcha asosiy nazariy tamoyillari talqin qilingan. Ushbu asar A.Jomiyning o‘tmishdoshlari – Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Sheroziy, Xo‘ja Abdulqodir va boshqa mualliflar asarlarining bevosita davomi va keyingi rivojidir. Bu kabi musiqiy-nazariy asarlarni o‘rganish O‘rta Osiyo xalqlarining musiqiy hayotini yoritishda juda qimmatli ma‘lumotlarni beradi.

Professor Fitratning zikr etilgan asarida Jomiy o‘z zamonasida mashhur bo‘lgan “Naqshi Mullo” nomli musiqa asari yaratganligi haqida eslatib o‘tiladi. Bu asar ashula yo‘llaridan biri bo‘lib, Jomiyning bastakor bo‘lganligini tasdiqlaydi [3.20].

Hasan Nisoriy (XVI asrning ikkinchi yarmi) o‘zining antologiyasida Shayboniy Ubaydullohxon hukmronligi davrida Buxoro va boshqa shaharlarda faoliyat yuritgan ko‘plab yozuvchi hamda olimlarning ismlarini sanab o‘tadi. Shubhasiz, ular orasida musiqa namoyandalari ham bor edi. Ubaydullohon she‘riyat hamda musiqiy ilmning bilimdoni, adabiyot va nafis san‘atlar homiysi sifatida maydonga chiqdi. Ubaydullohon topshirig‘iga binoan, Mavlono Najmiddin Kavkabiyy “Risolai musiqiy” ni yozadi. Najmiddin Kavkabiyy bastakor ham bo‘lgan, maqom yo‘llari asosida naqshlar, peshravlar ham yaratgan.

Najmiddin Kavkabiyyning shogirdi va izdoshlari qatorida Darvesh Ali Changiy alohida mavqega ega. Darvesh Ali yigitligida Abdullaxon, keksaygan paytlarida esa Imomqulixon saroyida

xizmat qilgan. Kavkabiya o‘xshab, u turli ilm sohalarini o‘zlashtirgan shoir, sozanda, hofiz va olim sifatida shuhrat qozongan. Uning eng yirik asarlaridan biri “Risolai musiqiy” da nafaqat musiqa ilmining an’anaviy parda va usullariga oid masalalari, balki sozandalar hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar ham yoritilgan. Ushbu nuqtai nazardan “Risolai musiqiy” nazariy hamda tarixiy ahamiyatga molik risola hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy va adabiy xarakterdagi asarlarda, ayniqsa musiqaga doir XV-XVII asrda yozilgan risolalarda maqomlar kuy va ashula shakllarining yaratilishi va ularning ijodkorlari haqida avvalgi davrlarga nisbatan boy material yetib kelgan. Chunki mazkur asrlarda mavjud bastakorlik an’anasi maqomning takomillashishida va Shashmaqomning shakllanish jarayonida asos yaratib bergan va bu sohada hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. XIV-XVIII asrlar davomida Shashmaqomning uzil-kesil shakllanib, qaror topishi uchun zamin yaratilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan manbalar O‘rta Osiyoda musiqiy an’analar qadimdan e’zozlanib, taraqqiy etib kelganligi hamda musiqa ilmi rivojlanganligidan dalolat beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent, 2004
2. Yo‘lchiyev T. Ko‘hna qal’alar diyori. – Toshkent, 1993
3. Rajabov I. “Maqomlar”. – Toshkent, 2006
4. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, 1996
5. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998
6. Раджабов И.Р. Трактаты о музыке. – Ташкент, 2020.



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000